


“Ibn Sinoga nisbat berilgan “Kichik tib qonuni” endi o‘zbek tilida

Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti olimlari tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan “Ibn Sinoga nisbat berilgan “Kichik tib qonuni” “Fan” nashriyoti tomonidan chop etildi.



Ўзбекистон Республикаси Фанлар
академияси Абу Райхон Беруний номидаги
Шарқшунослик институти

**ИБН СИНОГА НИСБАТ
БЕРИЛГАН
“КИЧИК ТИБ ҚОНУНИ”**

Fan tarixida tib ilmiga oid arab tilidagi “Kichik tib qonuni” asari ikki muallif: faylasuf va tabib sifatida Sharq va G’arbda mashhur bo’lgan buxorolik Abu Ali ibn Sino (980-1037) va isfahonlik tabib Abu Ali ibn Mandavayhga (vaf.1019) nisbat beriladi.

Asar muallifi Ibn Mandavayh ekanligi aniqlanib, u mazkur asar muqaddimasida buni yozishdan maqsadi qisqa, sodda va ortiqcha zeriktirishdan xoli bir tabobat qonunini yaratish ekanini aytadi. Asar ustidagi tadqiqot ishlari uning qisqaligidan tashqari tib ilmidan xabari yo’q kishilarga ham mo’ljallab yozilganligini ko’rsatdi. Tabobat tarixida tabiblikdan xabari yo’q kishilarga ham tibbiy asarlar yozish an’anasi bor. Bu turdagi asarlarda uy sharoitida davolash mumkin bo’lgan kasalliklar, ularning sabab va belgilari hamda davolash usullari haqida shuningdek, tabib kelguncha ko’rsatiladigan birinchi yordam choralari aytib o’tiladi.

Mazkur kitobning arab tilidan o’zbek tiliga tarjimasi tadqiqot, ilmiy izoh va ko’rsatkichlar bilan ta’minlangan holda tayyorlandi va nashr etildi.

Asar o’rta asr tabobatining ayrim nazariy va amaliy masalalariga bag’ishlangan bo’lib, ommabop shaklda, sodda va ravon tilda yozilgan va bizgacha o’ndan ortiq nusxalarda yetib kelgan. Tarjima uning yettita qo’lyozmasi asosida tayyorlangan tanqidiy matn bo’yicha amalga oshirildi.

Kitobdan manbashunoslar, fan tarixchilari, shifokorlar, tabiblar va boshqa sohaga qiziquvchilar foydalanishi mumkin.